

## **ARAB MUTAFAKKIRLARI TALQINIDAGI TASAVVUFİY QARASHLAR**

**Rustamov Behzod**

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti  
+998973781316

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Tasavvuf(تصوف), sufiylik(صوفي) - islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yoʻllovchi taʼlimot. Tasavvuf soʻzining oʻzagi va mazmuni haqidagi olimlarning turli fikr va taxminlari haqida maʼlumotlar berilgan. Bundan tashqari maqolada tarixiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan samarali foydalaniladi.*

**Kalit soʻzlar:** *tasavvuf, sufiylik, komillik*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье суфизм и суфизм - это учения ислама, ведущие человека к духовному и нравственному совершенствованию. Приводится информация о различных мнениях и предположениях ученых о происхождении и значении слова мистицизм. Кроме того, в статье эффективно используются исторический, аналитический и сравнительный методы.*

**Ключевые слова:** *мистика, суфизм, совершенство*

### **ABSTRACT**

*In this article Sufism and Sufism are the teachings of Islam that guide a person to spiritual and moral perfection. Information is given about the different opinions and assumptions of scholars about the origin and meaning of the word mysticism. In addition, the article makes effective use of historical, analytical and comparative methods.*

**Keywords:** *mysticism, Sufism, perfection*

### **KIRISH**

Insonning oʻziga va hayotga nisbatan qanday munosabatda boʻlishi uning tushunchalar olamiga, fikrlash tarziga, tafakkur madaniyatining darajasiga bogʻliqligi, bugungi kunda, turli soha olimlari tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Shu bois, jamiyatimiz aʼzolarining, xususan yoshlarning maʼnaviy barkamol boʻlishlari davlat ahamiyatiga ega boʻlgan vazifalardan sanaladi. Klassik oʻzbek tili va adabiyoti, xususan, Navoiy asarlarini oʻrganish jamiyatimizning maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan

yuksalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, chunki adabiyotning quroli so'zdir. So'z orqali go'zal tasvir yaratildimi, demak, bunday tilning lug'at boyligi kengdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Tasavvuf(تصوف), sufiylik(صوفي) - islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari maqolada tarixiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan samarali foydalaniladi. Mavzuning dolzarbligini bayon qilishda "رسالة الكشيرية" شيخ الحاطب البغدادي "زهد و الرفائق", الاسلام ذكرية, Аль-Хатыб аль-Багдади, «Зухд ва ар-Ракаиқ», «Рисалят аль-Кушайрия», «Мираджу-т-Ташаввуф иля хакаиқ тасаввуф» kabi nodir asarlardan unumli foydalanilgan.

### **MUHOКAMA VA NATIJALAR**

Tasavvuf(تصوف), sufiylik(صوفي) - islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima"(مقدمة) asarida tasavvuf "suvf"(صوف) – "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi.<sup>1</sup> "Tasavvuf" va "sufiy" so'zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd"(زهد) ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi so'zlar ishlatilgan. Ibn Xaldunning fikriga ko'ra, sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg'ular mujassam bo'lgan. Lekin hijriy yilning II asri va undan keyingi davrga kelib, odamlarning ko'pchiligida mazkur xususiyatlar o'rnida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo'la boshlagandan keyin obidlik va zohidlikni ixtiyor qilgan bir guruh kishilar tasavvuf va sufiylik nomi bilan ajralib chiqqanlar. Tasavvuf turlicha talqin qilingan. Masalan, Ma'ruf al-Karxiy (815-yil vafot etgan) fikricha, "tasavvuf - haqiqat sari intilish, odamlardan tamagirlik qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir". Zunnun al Misriy (859-yil vafot etgan), "Sufiy boyluk istab o'zini charchatmas va yo'qotgan boyligiga achinib, bezovta bo'lmas", desa, Junayd al Bag'dodiy (909-yil vafot etgan) "tasavvuf - qalbni sof tutmoq, tug'ma zaiflik va noxush axloqlardan forig' bo'lib,

<sup>1</sup> شيخ الاسلام ذكرية "رسالة الكشيرية" ورق 17

hayvoniy va nafsoniy tuyg'ular ustidan g'alaba qilmoq", deb ta'rif bergan.<sup>2</sup> Yana u "tasavvuf bir uy bo'lsa, shariat unga kiradigan eshikdir", degan. So'fi Olloyor bu ta'rifni quvvatlab: Shariatsiz kishi uchun havog'a Ko'ngil berma aningdek xudnamog'a deb yozadi. Misrlik olim Ibrohim Basyuniy "Islomda Tasavvufning paydo bo'lishi" kitobida hijriy III va IV-asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi 40 ta ta'rifini keltiradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvuf islom shiati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuxd, taqvo, kamtarlik kabi olijanob fazilatlarni o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan ibora. Tasavvuf tasavvufning o'ziga xos istilohi mavjud. Masalan, tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs - shayx, murshid, pir, eshon, xoja, mavlo, mavlono, maxdum kabi unvonlar bilan tanilgan. Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs - murid, solik, axli dil, axli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo'yicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar - valiy, avliyo, qutb, aqtoq, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, g'avs va h.k. deyilgan.<sup>3</sup> Tasavvuf ahli ba'zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolulg'ayb, savdoyi, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan.<sup>4</sup>

Tasavvuf istilohi asosida ijod etgan shoirlar majoz uslubini tanlaganlar. Shuning uchun haqiqat, majoz, tashbeh, istiora kabi mantiqiy qoidalardan boxabar bo'lmagan kitobxon Navoiy, Fuzuliy, Atoiy, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining she'rlarini to'la anglashi qiyin kechadi. Tasavvuf tarixida ko'pgina olimlar tasavvufga doir so'zlar izohiga bag'ishlangan lug'at va qomuslarni yozib qodsirganlar. Ulardan ayrimlari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqsa. Tasavvuf tariqatlarining insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e'tirof etilsada, ba'zan islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, uning tariqatlari, mashoyixlari va karomatlarini inkor etish ko'zga tashlanadi. Burhoniddin al Biqoiy (1406-1480)ning "Tasavvuf inqirozi", Abdurahmon Damashqiyaning "Naqshbandiya tahlili" kitobi va boshqa kitoblarda tasavvufning barcha tariqatlari va ularga doir asarlar hamda mashoyixlar qattiq tanqid qilingan. Aziz avliyolarning maqbara va mozorlarini ziyorat qilish shirk deb sanalgan. Vaholanki, ularning bu da'volari shar'an asossizdir.

<sup>2</sup> الحاطب البغدادي "زهد و الرفائق" ورق 134

<sup>3</sup> الحاطب البغدادي "زهد و الرفائق" ورق 139

<sup>4</sup> شيخ الاسلام ذكريه "رسالة الكشيرية" ورق 19

Islom huquqshunosligida, ya'ni shar'iy ko'rsatmalarni amalga tatbiq etishda 4 ta fiqxiy mazhab bo'lganidek, tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari — tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviylik, malomatiylar, rifo'iy, kubroviylik, suhravardiylik, chishtiya, akbariya, shoziliya, bektoshiya, mavlaviya, naqshbandiya, sanusiya tariqatlaridir. Mustaqillik yillari mamlakatimizda tasavvuf tariqatlarini o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atokdi mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga ahamiyat berilmoqda.

Quyida arab mutafakkirlarining "tasavvuf" haqidagi fikrlarini taqdim etmoqchiman:

Imom al-Junayd al-Bag'dodiy (hijriy 297 yil vafot etgan) aytgan:

استعمال كل خلق سني وترك كل خلق دن

"Tasavvuf - barcha yuksak axloqlarga rioya qilish va barcha past axloqlarni rad etish".<sup>5</sup>

Shayx al-Islom Zakariya al-Ansoriy (823-926) aytgan:

التصوف علم تعرف به أحوال تزكية النفوس، وتصفية الأخلاق وتعمير الظاهر والباطن لنيل السعادة

الأبدية

"Tasavvuf - bu ilm orqali yovuz qalbni (nafsni) tozalash, axloqni kuchaytirish, abadiy baxtga erishish uchun ochiq va yashirin narsalarni takomillashtirish usullari o'rganiladi".<sup>6</sup>

Imom Ahmad ibn Ajiba (1160-1224) aytgan:

التصوف هو علم يعرف به كيفية السلوك إلى حضرة ملك الملوك، وتصفية البواطن من الرذائل، وتحليلتها

بأنواع الفضائل، وأوله علم، ووسطه عمل، وآخره موهبة

"Tasavvuf - bu Podshohlar Podshohligi yo'lini anglash, qalbni illatlardan tozalash, ularni yaxshi fazilatlar prizmasi orqali tahlil qilishdir. Uning boshlanishi bilim, o'rtasi amal, oxiri sovg'adir".<sup>7</sup>

Imom Faxruddin ar-Roziy (544-606) ushbu oyatni sharhlar ekan:

{ وَيُزَكِّيهِمْ } أي يطهرهم من خبث الشرك، وخبث ما عده من الأقوال والأفعال، وعند البعض { يُزَكِّيهِمْ }

{ أي يصلحهم، يعني يدعوهم إلى اتباع ما يصيرون به أذكاء أتقياء

"Ularni tozalaydi"- ya'ni ularni shirk va undan boshqa so'z va ishlarning iflosligidan tozalaydi, ba'zilar buni " ularni tuzatadi", ya'ni ularni to'g'rilaydi, deb izohlaydilar, ularni pok qiladigan narsalarga ergashishga chaqirishadi va Xudodan qo'rqadiganlar".

<sup>5</sup> Аль-Хатыб аль-Багдади, «Зухд ва ар-Ракаиқ», с. 77

<sup>6</sup> «Рисалят аль-Кушайрия», с. 7

<sup>7</sup> «Мирадж-т-Ташаввуф иля хакаиқ тасаввуф», с. 4

Bizga tasavvuf nima uchun kerak? Chunki inson kamdan-kam hollarda qalblarning ofatlaridan, illatlaridan va kasalliklaridan xoli bo‘ladi, ular Alloh Taolo poklashni buyurgan: “Va oshkora va yashirin gunohlarni kechir” (Qur’on, 6: 120).

Imom ar-Roziy ushbu oyatni tafsir qilar ekan:

{ ظَهَرَ الْإِثْمَ } أفعال الجوارح { وَبَاطِنَهُ } أفعال القلوب من الكبر والحسد والعجب وإرادة السوء للمسلمين

“Aniq gunohlar - bu tana a’zolarining harakatlari, yashirin bo‘lganlar esa qalbning harakatlaridir: takabburlik, hasad, behuda narsalar, musulmonlar uchun yomon narsalarga intilish”.

Shuning uchun Imom G’azzoliy (450-505) Ihya Ulyumid-Din asarining kirish qismida tasavvuf ilmida har bir musulmon va musulmon ayol erishishi kerak bo‘lgan daraja borligini aytgan. Yurak kasalligi haqidagi kitobda halokatli gunohlar haqida gapirib, shunday yozadi:

فإذا كان الغالب أن الإنسان لا ينفك عن دواعي الشر والرياء والحسد فيلزمه أن يتعلم من علم ربيع المهلكات ما يرى نفسه محتاجا إليه وكيف لا يجب عليه وقد قال رسول الله صلى الله عليه و سلم ثلاث مهلكات شح مطاع وهوى متبع وإعجاب المرء بنفسه

“Agar inson, ehtimol, yovuzlik, namoyish va hasad ta’siridan o‘zini tozalay olmasa, demak, u o‘zi uchun zarur deb bilgan darajada halokatli gunohlar haqidagi bilimlarni o‘rganishi kerak. Qanday qilib u uchun keraksiz bo‘lishi mumkin, agar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Uch zararli narsa bular: itoatkorlik, itoat etish; odamning o‘ziga bo‘lgan hayratidan keyin ehtiros “?”.

Al-G’azzoliy shunday degan edi:

وأكثر ما ذكرناه في ربيع المهلكات من فروض الأعيان وقد تركها الناس كافة اشتغالا بما لا يعنى

“Yiqituvchi gunohlar mavzusida aytib o‘tgan narsalarning aksariyatini bilish har bir musulmonning shaxsiy mas’uliyatidir, ammo odamlar o‘zlariga tegishli bo‘lmagan ish bilan shug’ullanganliklari sababli bu haqda unutdilar”.

Qur’on va Sunnatdan olingan tasavvuf ilmi inson uchun dasturni ishlab chiqadi, shu tufayli u yurak xastaliklaridan tozalanadi va axloqiy fazilatlar, ajoyib holatlar bilan bezatiladi, sog’lom qalb egasi bo‘lishga intiladi.

Agar tasavvuf aslida Qur’on va Sunnatdan olingan bo‘lsa, unda uni boshqa ism deb atashning hojati nima? Bu jamoaning bo‘linishi emasmi?

Jamiyatda bo‘linish yo‘q, chunki sharafli shariatdan olingan barcha bilimlarning o‘ziga xos atamallari va nomlari mavjud bo‘lib, ularni ko‘rsatadigan va Islomning dastlabki bosqichidan keyin bir fanni boshqasidan ajratish uchun kiritilgan. fiqh fani, hadis terminologiyasi, Qur’on o‘qish turlari, usulyu-d-din (din asoslari), tasavvuf va boshqa ilmlar. Ularning barchasi sharafli Vahiydan olingan, ammo ularning ismlari

keyinroq paydo bo'ldi. Unda bu tasavvufning shaxs va jamiyat hayotidagi samaralari qanday? Tasavvuf Alloh taolo bilan muhabbat, samimiyat bilan muomala qiladigan, barcha mavjudotlarga yaxshilik istaydigan, Alloh unga ishonib topshirgan narsani - uning er yuzidagi hokimligini va yaxshilik va mukammallik orqali qaror topishiga tayyor bo'lgan odamni barpo etadi. Shubhasiz, bu ruhlarning poklik holati musulmonlar orasida tarqalgandan so'ng, bu takomillashtirish va kamolotga, ular orasida ajoyib axloq va yaxshi munosabatlarning tarqalishiga olib keladi. Ehtimol, bu hatto dunyo uchun chuqur yolg'izlikdan, haddan tashqari xudbinlikdan va hozirgi paytda azob chekayotgan jinoiy materializmdan qutulish yo'liga aylanadi.

Nega biz ba'zi so'fiylar orasida jaholat va shariat bilan ziddiyatni ko'ramiz?

O'zlarini tasavvuf, deb hisoblaydigan ba'zi kishilarning shariat va samoviy haqiqatlarga muvofiq tartiblangan o'z uslubiyatiga zidligi bu metodologiyaning asosligini shubha ostiga qo'ymaydi. Chunki boshqa har qanday shariat ilmida begonalar bor, masalan, hadis ilmida yolg'onchi-yozuvchilar va e'tiqod ilmida antropomorfistlar. Biroq, bu ushbu fanlarni o'zlarini tark etish uchun bahona emas.

## **XULOSA**

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Ilmiy tasavvuf - Qur'on va Sunnatdan olingan shar'iy sharaflililm.
- Tasavvufning asl mohiyati Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ning yuborgan missiyasi davridan beri ma'lum bo'lgan.
- "tasavvuf" nomi boshqa shariat ilmlari singari Payg'ambar alayhissalom davridan keyin qo'llanila boshlandi. "Ruhimiz va qalbizni poklash uchun tasavvuf ilmi kerak.
- Tasavvuf mevalari to'g'ri shaxsni barpo etish va go'zal axloqni ijodlar orasida tarqatishdir.
- O'zlarini tasavvufning asl mohiyati deb hisoblaydigan ba'zi kishilarning ziddiyatlari butun metodologiyaning to'g'riligini shubha ostiga qo'ymaydi.

## **REFERENCES**

1. شيخ الاسلام ذكرية "رسالة الكشيرية"
2. الحاطب البغدادي "زهد و الرقائق"
3. Аль-Хатыб аль-Багдади, «Зухд ва ар-Ракаиқ»
4. «Рисалят аль-Кушайрия»
5. «Мираджу-т-Ташаввуф иля хакаиқ тасаввуф»